
Qurbon hayiti bayrami bilan chin qalbimdan samimiy tabriklab, eng ezgu tilaklarimni bildiraman

Assalomu alaykum! Hurmatli hamkasblar. Aziz talaba-o'quvchilar!

Mana shu fayzli damlarda Yer yuzidagi jami musulmon ummati qatori qalbi shukuhga to'lib turgan siz, azizlarni – nuroniy otaxon va onaxonlarimizni, qadrli aka-uka va opa-singillarimizni, navqiron yoshlarimizni, iymon-e'tiqodli xalqimizni ulug' ayyom – Qurbon hayiti bayrami bilan chin qalbimdan samimiy tabriklab, eng ezgu tilaklarimni bildiraman.

Fursatdan foydalanib, dunyoning olis va yaqin mamlakatlarida yashayotgan musulmon do'st va birodarlarimizni, ushbu mo'tabar ayyom bilan qutlab, ularga bardavom tinchlik, ravnaq va farovonlik tilayman.

Ezgu ishlarimiz, intilishlarimizda Yaratganning O'zi doimo madadkor bo'lsin!

Hurmat bilan Dilshodxon Islomov

SamDCHTI akademik litseyi ijrochi direktori.